



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№7(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 232 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari	8
Davronov Rustam Iloxovich	
Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана	15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar	20
Qudratov O'ktam G'ofurovich	
The Role of Motivation in Learning English	25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna	
Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-dagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna	
Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari	43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna	
Talabalarining texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari	48
Kushbakova Barno Batirkulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish	54
Arslanova Madinaxon Mansurovna	
O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati	59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna	
Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	63
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish	67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna	
Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari	71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li	
Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari	76
Xolova Yulduz Erkinovna	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi	83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual faolligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar	90
Djurakulova Munira Suyunovna	
Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	97
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Народное творчество как великое сокровище интеллектуального воспитания	102
Матмуратова Гулистан Камалатдиновна	
Raqamli intellekt: o'quvchilarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish – davr talabi	108
Nishonova Muattarxon Alisherovna, Toirova Nafisa Muzaffar qizi	



Umumta'lim fanlaridan dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari.....	111
Toshmamatova Munisa Toshmamatovna	
Xorazm viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari (tumanlar kesimida)	115
Xo'jyozova Dildora Shonazar qizi, Dusanova Sharofat Baltaboyevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	121
Kadirova Dildora Najadbekovna	
The Integration of Artificial Intelligence in English Language Teaching: Opportunities and Challenges	125
Moxinur Yusupova	
Pragmatik-tizimli portfolio (PTP) texnologiyasi: talabalar reflektiv tafakkurini faoliyat dalillari asosida rivojlantirish.....	131
Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna	
Sog'lig'ida cheklovlari mavjud bolalar jismoniy va psixologik holatini takomillashtirishda yengil atletika mashg'ulotlarining ahamiyati	136
Hikmatova Nigoraxon Hasanboy qizi	
Art badiiy ta'limning rivojida klaster yondashuvi	140
A. S. Umarov	
Simulyatsion o'yin muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari.....	143
Turg'unova Mohinaxon Akmaljon qizi	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (empirik tadqiqot).....	150
Toshpolatova Robiya Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	154
Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Esanova Mehrgul Qurbanazarovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi dizartriyaning yengil shakliga ega 6-7 yoshli bolalardagi nutq kamchiliklarini o'yin texnologiyalari asosida korreksiyalashning samaradorligi.....	159
Baxadirova Zulfizar Azimbayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ va ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni baholashning diagnostik vositalarini tanlash va qo'llash metodikasi.....	163
Abdullayeva Munojot Muxtorovna	
Talabalarni o'quvchilarning tibbiy tashxisiga mos pedagogik yondashuvlardan foydalanishga o'rgatish usullari.....	169
Yuldashova Iroda Dilshodovna	
Uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalar uchun ta'lim muassasalarining tashkil etilishi.....	174
Yusupjanova Shaxnoz Mirzatillayevna	
O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida raqamli STEAM muhitini joriy etish: o'qituvchilar tayyorgarligi va infratuzilma cheklovlari tahlili.....	178
Abdullayev Doston Sheraliyevich	
Bo'lajak maxsus pedagoglarning faol fuqarolik kompetensiyasining tarkibiy-mezonli modeli va rivojlanganlik darajalari	183
Sultonov Muxammadali Fayzulla o'g'li	
Совершенствование механизмов интеграции стратегического и функционального менеджмента на основе анализа деятельности государственных и международных филиалов вузов	189
A. M. Маргунов	
Решение педагогических проблем, возникающих при обучении письму леворуких учащихся начальных классов	194
Эгамбердиева Юлдуз	
Biologiya ta'limida generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va metodik asoslari	198
Parmonova Marjona O'ktam qizi, Baybayeva Muxayyo Xudoyberganovna	

Bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	204
Sherdanova Farangiz Raxmat qizi	
Zamonaviy televideniya suxandon nutqining tabiiyligi va auditoriya bilan ishonchli muloqot	208
Maxanbetova Dilnoza	
10-sinf kimyo darslarida "Spirtlar" bo'limini o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish metodikasi.....	211
Nazarova Yulduz Atamuratovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda ijodiy o'yinlardan foydalanish	215
Yuldasheva Shoxida Botirovna, Kurbanbayeva Moldir Abatbay qiz	
Milliy taraqqiyot g'oyalarida jadid ayollarining o'rni.....	220
Ergashova Mehriniso Husniddin qizi	
Mahalla – oila – ta'lim muassasasi hamkorligi.....	223
Muxtarov Utkirjon Mutalibjanovich, Abdusamatov Ozodbek	
Oliy ta'lim muassasalarida "Mikrobiologiya" modulini raqamli texnologiyalar asosida o'qitishning didaktik imkoniyatlari	227
Reymova Erkinay Atabayevna	



MAHALLA – OILA – TA'LIM MUASSASASI HAMKORLIGI

Muxtarov Utkirjon Mutalibjanovich

Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.f.d. PhD

Abdusamatov Ozodbek

Andijon davlat pedagogika instituti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurt kelajagi bo'lgan yoshlarning, bolalarning mustaqil va erkin shaxs sifatida shakllanishida oila, mahalla va maktab hamkorligi, ta'lim-tarbiya jarayonini har tomonlama takomillashtirish juda katta ahamiyatga ega. O'zaro hamkorlikning yanada mustahkamlanishi va samarali tashkil etilishi yoshlarning barkamol avlod sifatida kamol topishi uchun zamin bo'ladi. Yurt kelajagi yoshlar qo'lida ekan, ularga yoshligidan tarbiyani yaxshi berish kerak, ya'ni birinchi o'rinda oiladan boshlash kerak.

Kalit so'zlar: Ta'lim, o'qish, dars jarayoni, pedagogik texnologiyalar, kreativlik, kengaytirilgan texnologiyalar, hamkorlik, jamiyat, mustahkam, barkamol, tashabbus, konsepsiya, oila, mahalla.

Abstract: This article highlights the immense importance of cooperation between the family, the neighborhood (Mahalla), and the school in forming children and youth-the future of the nation-as independent and free individuals. The comprehensive improvement of the educational process and the further strengthening of mutual cooperation serve as a foundation for the development of youth as a harmoniously advanced generation. Since the future of the country lies in the hands of the youth, it is essential to provide them with a sound upbringing from an early age, starting primarily within the family.

Key words: Education, studying, lesson process, pedagogical technologies, creativity, extended technologies, cooperation, society, strong, harmonious, initiative, concept, family, mahalla.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль сотрудничества семьи, махалли и школы, которая имеет огромное значение в формировании молодежи и детей - будущего страны - как независимых и свободных личностей. Всестороннее совершенствование образовательно-воспитательного процесса и дальнейшее укрепление взаимного сотрудничества служат фундаментом для становления молодежи как гармонично развитого поколения. Поскольку будущее страны находится в руках молодежи, необходимо давать им качественное воспитание с ранних лет, начиная в первую очередь с семьи.

Ключевые слова: Образование, учеба, учебный процесс, педагогические технологии, креативность, расширенные технологии, сотрудничество, общество, крепкий, гармоничный, инициатива, концепция, семья, махалля.

KIRISH

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lini tanlagan mamlakatimizda oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi hamda unda shaxs tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatuvchi milliy qadriyatlar yil sayin qadr topib, nufuzi oshib bormoqda. Buning asosiy sababi davlatimiz tomonidan ijtimoiy institutlarga har tomonlama e'tibor qaratilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, mustaqillik bergan imkoniyat tufayli qo'lga kiritilgan milliy qadriyatlarining qayta tiklanayotganligidir. Shu ma'noda olib qaralganda, ijtimoiy institutlar va uning muammolari bo'yicha ilmiy asoslangan tadqiqotlarning yuzaga kelishi dolzarb ahamiyatga molik bo'lib qolaveradi.

Yosh avlodni tarbiyalashdek buyuk ishga Prezidentimizning ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratganliklari har bir fan o'qituvchisidan o'z faoliyatiga jiddiy yondashishni talab etmoqda. Davlatimiz rahbarining qator qarorlari asosida yoshlar bilan ishlash negizida mahalla, maktab va oilaning o'rni haqida fikr yuritilgan.

Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'y-harakatlarini birlashtirish maqsadida 1993-yilda ishlab chiqilgan "Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi" konsepsiyasi yoshlarni istiqloq g'oyalariga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar qilib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida dasturlamal bo'ldi. "Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi" konsepsiyasining asosiy maqsadi yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda o'zbek xalqining boy milliy, madaniy, tarixiy an'analari, urf-odatlar va umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish, shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta'minlash,



ota-onalar, pedagoglar va mahalla faollarining umumiy hamda milliy pedagogik madaniyatini oshirish, respublika fuqarolari orasida milliy mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirishdan iboratdir.

Konsepsiyada jamiyat taraqqiyotining ma'naviy-axloqiy negizi bo'lgan milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy va umuminsoniy tarbiyaning o'zaro aloqasi hamda muhim yo'nalishlari belgilab olingan. Chunonchi, mahalla, oila va ta'lim muassasasi hamkorligida milliy tarbiya yo'nalishida yoshlarning o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g'urur, millatlararo muloqot madaniyati, milliy mafkuraviy ongliklik, milliy odob, fidoyilik kabi fazilatlarini o'zlashtira olishlari zarurligi ko'rsatilgan bo'lsa, umuminsoniy yo'nalishda hamkorlikdagi pedagogik faoliyatning huquqiy, iqtisodiy, jismoniy, aqliy, estetik, ekologik, gigiyenik va boshqa tarbiya sohalarini qamrab olishi muhim ekanligiga e'tibor qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi masalasi pedagogika va ijtimoiy pedagogika fanlarida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlarda yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, ularning ijtimoiylashuvi hamda barkamol shaxs sifatida shakllanishida ushbu uch ijtimoiy institutning o'zaro hamkorligi alohida ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan.

R. Mavlonova pedagogik qarashlarida oila va maktab hamkorligi ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri ekanligini qayd etib, ota-onalar, pedagoglar va jamoatchilikning uzviy hamkorligi bolalarda ijobiy axloqiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qilishini asoslab bergan.

N. Egamberdiyeva ijtimoiy pedagogik yondashuv asosida mahallaning tarbiyaviy imkoniyatlarini tahlil qilib, mahalla fuqarolar yig'ini yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash hamda salbiy ijtimoiy omillarning oldini olishda muhim institut ekanligini ta'kidlaydi.

O. Musurmonova oilani ma'naviy tarbiyaning asosiy maskani sifatida baholab, farzand kamolotida oilaviy muhit, ota-onaning shaxsiy namunasi va milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

N. Sh. Almetov esa oila, maktab va mahalla o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikning tashkiliy-pedagogik asoslarini yoritib, ushbu institutlarning hamkorligi uzluksiz va tizimli yo'lga qo'yilgandagina ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi oshishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligini takomillashtirish yoshlarning ma'naviy-axloqiy, fuqarolik va vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish, ularni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashning muhim sharti hisoblanadi. Shu bois mazkur hamkorlikni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida rivojlantirish bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligiga oid konsepsiyalar, davlat dasturlari hamda pedagogik manbalar tahlil qilinib, hamkorlikning asosiy tamoyillari, vazifalari va tarbiyaviy imkoniyatlari aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi quyidagi tamoyillar asosida yo'lga qo'yiladi:

1. Ta'lim va tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilari harakatlarining ish birligi.
2. Tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg'unligi.
3. Hamkorlik jarayoni subyektlarining teng huquqliligi va yuksak mas'uliyati.
4. Faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlarini ustuvorligi.
5. Hamkorlikning ilmiy asoslanganligi.

O'zbekistonda sog'lom avlodni tarbiyalashda oila–mahalla–ta'lim muassasasi hamkorligini ta'minlash samaradorlikning garovidir. Bu borada hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan ustuvor yo'nalishlar quyidagilardan iboratdir:

- oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligini ta'minlashning huquqiy bazasini takomillashtirish, hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan uslubiy ta'minotni mustahkamlash;
- oilada yoshlar va ota-onalarning ijtimoiy faolligini oshirish; o'quvchi yoshlarga ta'lim berish, ularni tarbiyalash, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni qiziqishlari bo'yicha kasbga yo'naltirish;



- ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash;
- voyaga yetmagan o'smirlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va nazoratsizlikning oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirish;
- yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga keng jalb etish orqali sog'lom oilaga tayyorlash;
- barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni mazmunan takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish mexanizmini yaratish;
- sog'lom avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish.

Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'y-harakatlarini birlashtirish maqsadida 1993-yilda ishlab chiqilgan "Oila, mahalla va maktab hamkorligi" konsepsiyasi yoshlarni istiqloql g'oyalariga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida muhim dasturilamal bo'ldi. Mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qator me'yoriy hujjatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va maktab nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi.

Davlatimiz rahbarining 2009-yil 13-apreldagi "Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog'lom avlodni shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"¹ hamda 2009-yil 1-iyulda qabul qilingan "2009-2013-yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi qarorlari bunday xayrli ishlarning izchilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli tibbiy-ijtimoiy islohotlar aholiga zamonaviy tibbiy xizmatni yaqinlashtirish, reproduktiv salomatlikni mustahkamlash, ekstragenital kasalliklarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda 1998-yil Oila yili² deb e'lon qilinishi oilaning tarbiyaviy rolini yanada kuchaytirdi. O'zbekistonda yuz berayotgan o'zgarishlar oila, mahalla, maktab hamkorligi yo'nalishida bola tarbiyasida oila, ota-ona, mahalla va maktabning asosiy vazifalarini mazmunan yangilab, hayotga tatbiq etishni taqozo qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilanganidek, oila jamiyatimizning asosiy bo'g'inidir. Haqiqatan ham oila bu jamiyatni tashkil etuvchi katta kuchdir. 2012-yil mamlakatimiz rahbari tashabbusi bilan "Mustahkam oila yili"³ deb nom berilishi va shu asosda azal-azaldan hayotimizning tayanchi va suyanchi bo'lib kelgan, jamiyatimizning hal qiluvchi bo'g'ini bo'lmish oila institutini yanada rivojlantirishga qaror qilinishi hayot abadiyligini, har qaysi insonning baxt-u saodati, kelajagi, orzu-intilishlarini mujassam etadigan oilani yanada mustahkamlash va farovonligini oshirish, bu borada olib borilayotgan barcha ishlarni yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qildi. Oilalarning mustahkamligi va turmushning obodligi kelajak avlodning komil inson bo'lib yetishishi uchun tayanch hisoblanadi. Ushbu yilda ham ishlab chiqilgan Davlat dasturi asosida hamkorlik ishlari tashkil etish zarur. Bunda oilaning ham, maktab va mahallaning ham tashabbuskorligi hamda o'zaro hamjihatligi talab etiladi.

Oila kabi mahalla ham jamiyatni shakllantirishning ajralmas qismidir. Vatanimiz tarixi guvohlik beradiki, o'zbek jamiyatida jamoa bo'lib yashashning sinalgan shakli mahalladir. "Mahalla" so'zi arabcha "mahallun" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, aholi yashaydigan joy, guzar, uy-joy mavzelari degan ma'noni anglatadi. Mahalla shaharlar ichidagi kichik hududiy birlik bo'lib, o'tmishdan meros bo'lib kelmoqda. Bejizga yurtboshimiz: "Mahalla - yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi", deb ta'kidlamagan.

Bir bolaga yetti mahalla ota-ona degan naqldan kelib chiqib, kelajak avlodni tarbiyalash va unga ta'lim berish jarayonini amalga oshirish borasida kichik Vatan bo'lmish mahallaning oldida quyidagi vazifalar turadi:

- mahalla faollari tomonidan tarbiya muassasalari bilan birgalikda ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak bo'lgan masalalarni muhokama qilishda qatnashish va oqilona yechimlarni topishda faollik ko'rsatish;
- mahalla o'z hududidagi ijtimoiy va iqtisodiy yordamga muhtoj oilalarni aniqlab, ularni qo'llab-quvvatlash hamda farzandlarining bilim va tarbiya olishlariga bosh-qosh bo'lish;
- ma'nan nosog'lom oilalarni mahalla yig'inlarida muhokama qilish, ularga nisbatan jamoatchilik choralari ko'rish;
- mahalla hududidagi o'quv-tarbiya muassasalariga iqtisodiy va ijtimoiy yordam ko'rsatilishini qo'llab-quvvatlash;

1 <https://www.lex.uz/uz/docs/1470958>

2 <https://uz.wikipedia.org/wiki/1998>

3 <https://www.gazeta.uz/uz/2012/02/28/dastur/>



- ota-onalar orqali bolalarga tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, milliy odob, mafkuraviy ongillik, baynalmilallik kabi xislatlarni singdirishni har tomonlama rag'batlantirish;
- yoshlarga diniy mazhablar va sektalar, aqidaparastlikning mohiyatini to'g'ri anglab yetishlariga ota-onalar orqali ta'sir ko'rsatish;
- ulug' ajdodlarimizning tarbiyaviy o'g'itlarini singdirib borishga jamoatchilikni safarbar qilish;
- mahalla yig'inlarida milliy davlatchilik va milliy mafkura g'oyalarini, respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida erishilgan yutuqlarni targ'ib etuvchi turli tadbirlarni tashkil qilish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bola tarbiyasida maktab, mahalla va oila hamkorligi to'g'ri yo'lga qo'yilsa, ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligiga erishish hamda oldimizga qo'ygan maqsadni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deganidek, bola ham oilasida qanday tarbiya ko'rsa, jamiyatda ham, mahallada ham shuni namoyon etadi.

Ulug' donishmandlardan biri: "Agar sen bir yilni o'ylasang, bug'doy ek, hosilini kuzning o'zidayoq olasan. O'n yildan keyinni o'ylasang, bog' yarat, uch-to'rt yil o'tib, meva beradi. Agar sen kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi tarbiya ber", - degan ekan. Bu bilan nima demoqchi? Ya'ni kelajaging bolang qo'lida. Sen unga qanday tarbiya bersang, shuni o'zingga qaytaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R. Mavlonova, K. Xoliqberdiyev, "Pedagogika". T: "O'qituvchi nashriyoti". 2002- yil
2. R. Mavlonova, B. Normurodova, N. Rahmonqulovalarning Tarbiyaviy ishlar metodikasi
3. Abdullayeva, O. O. (2021). Ibroyim Yusupov ijodi asosida o'quvchilarning vatanparvarlik tuyg'ularini o'stirish. Academic research in educational sciences, 2(3),
4. Umumta'lim fanlar Metodikasi jurnali
5. Mirziyoyev, Sh. M. (2017). Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: „O'zbekiston“.
6. Almetov, N. Sh. (2018). Oila, maktab va mahallaning ijtimoiy hamkorligi. Metodik qo'llanma. Toshkent.
7. Inomova, M. (2012). Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. Toshkent: „Nizomiy nomidagi TDPU“.
8. Musurmonova, O. (2020). Oila ma'naviyati - milliy g'urur. Toshkent: „O'qituvchi“.
9. Egamberdiyeva, N. M. (2016). Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: „Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi“ nashriyoti.
10. Odiljon, G. U. (2025). Dezinformatsiya tushunchasi va uning mohiyati.// "ACTA NUUZ", 1(1.4), 76-78.
11. O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida“gi Qonuni. (2020). Yangi tahriri.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.